



# SERTIFIKAT

Oydinniso Nasirdinova Dagarovna ga

O'ZBEK TILINI O'QITISHDA LINGVOSTATISTIK TAHLIL VA CHASTOTALI LUG'ATLARNING AHAMIYATI

mavzusidagi ma'ruza bilan O'zbekiston davlat jahon tillari universitetida o'tkazilgan "Xorijiy tillarni o'qitishda innovatsion yondashuvlar: nazariyaning amaliyotga tatbiqi" mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumanda faol ishtiroki uchun berildi.

O'zbekiston davlat jahon  
tillari universiteti rektori:



Duxtasinov Ilxomjon Madaminovich

2025-yil 29-mart, Toshkent, O'zbekiston





# XORIY TILLARINI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

*mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani*

doi Digital object  
identifier

Google  
Scholar

OpenAIRE

INDEXING



**XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION  
YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI**  
*mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani*

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA  
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
O'ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI  
INGLIZ FILOLOGIYASI FAKULTETI  
INGLIZ TILI FUNKSIONAL LEKSIKASI KAFEDRASI**

**XORIJIY TILLARINI O'QITISHDA  
INNOVATSION YONDASHUVLAR:  
NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI**

*mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjuman to'plami*

---

Toshkent, O'zbekiston

**2025-yil 29-mart  
Toshkent**



# XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

*mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani*

## O'ZBEK TILINI O'QITISHDA LINGVOSTATISTIK TAHLIL VA CHASTOTALI LUG'ATLARNING AHAMIYATI

**Oydinniso Nasirdinova Dagarovna**

*ToshDO`TAU tayanch doktoranti*

*Toshkent shahri, +998977133001*

[oydinnisonasirdinova0@gmail.com](mailto:oydinnisonasirdinova0@gmail.com)

**DOI:** <https://doi.org/10.5281/zenodo.15178857>

**Annotatsiya:** Muayyan tilda mavjud nutq birliklarining faolligini aniqlash til o'qitish jarayonining samaradorligini oshiradi va vaqtni tejaydi. Nutq birliklarining nutqda faollik darajasini aniqlash lingvostatistik metod orqali amalga oshadi va bu jarayonning natijalari chastotali lug'atlarning yaratilishiga sabab bo'ladi. Chastotali lug'atlar ma'lum vaqt oralig'idagi saralab olingan tanlanma matnlarda uchrovchi barcha nutq birliklarining miqdoriy natijalarini o'zida namoyon etadi.

**Kalit so'zlar:** lingvostatistik tahlil, chastota tahlili, chastotali lug'at, Pareto qonuni, nutqiy darajalanish.

Til o'rganishning bosh maqsadi shu tilda erkin muloqot qilish va fikr almashishdir. Bu jarayon o'rganuvchining qiziqishi, xohishi, o'rgatuvchining jarayonning tizimli va tartibli tarzda tashkil qilishi va mahoratiga bog'liq. Til o'qitish jarayonining asosini muayyan dastur, ishonchli va sifatli darslik hamda o'quv qo'llanmalari tashkil etadi. Til ko'nikmalarining shakllanishi uchun lingvistik bilim, til birliklari amalda – og'zaki va yozma nutqda voqelanishi uchun esa ma'lum vaqt talab etiladi. Turli vaqt oralig'ini qamrab oluvchi bu jarayon o'sha tilning tipologik holati – grammatik qurilishining oson va murakkab ekanligiga ham bog'liq. Biroq til o'qitishning umumiy qonuniyatlari va jarayoni tahlil qilinsa, statistik holati o'rganilsa, til o'rganuvchining amaliy natija berish muddati, til ko'nikmalaridan foydalanish olish qobiliyati deyarli bir xil mushtarak xulosalarni namoyon etadi. Bu borada olimlarning kuzatishlari shuni ko'rsatadiki, o'rganayotgan tilga oid 2500 ta so'zni bilish o'rganuvchi kundalik vaziyatlarda o'zini ifoda etishi va mahalliy aholi bilan ravon muloqot qilish imkonini beradi. Bundan tashqari, insonlar kundalik nutqda har qanday tilda o'rtacha 1000 ta so'zdan foydalanishi aniqlangan. Faol 2500 ta so'zni bilgan kishi 95% o'qish va 85% yozish layoqatiga ega bo'ladi.<sup>1</sup> Bunday natijani reallashtirish uchun esa o'qitish jarayoniga olib kirilgan so'zlarning faolligi, ya'ni amaliyotda qo'llana olish darajasining yuqoriligini hisobga olish muhimdir. Til

<sup>1</sup> Jolie Laide. German-English Frequency Dictionary Essential Vocabulary. – Hong Kong: "First Publishing", 2016. P 5.



# XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

*mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani*

birliklarining nutqda qo'llanish darajasini aniqlash o'z-o'zidan ularning chastotasini aniqlash va uning natijalariga bog'liqdir. Shu sababli dunyo tillarining ommalashuvi – keng ko'lamda o'rganilishi ma'lum til chastota lug'atlari mavjudligi hamda nutq birliklarining faol va nafaollik ko'rsatkichi asosida nutqiy darajalanishini ko'zda tutadi.

Tilni lug'at tarkibi, grammatik birliklar va qonuniyatlarni nutqdagi faollik darajasiga ko'ra maqsadli o'rgatish jamiyatda samaradorlikning yetakchi tamoyili– “Pareto” qonunining nazariy va amaliy tilshunoslikka teng joriy qilinganligini ifoda etadi. “Pareto” prinsipi (Pareto qonuni) sifatida ham tanilgan 80/20 prinsipi italiyalik iqtisodchi Vilfredo Paretoning kuzatishlariga asoslanadi. U hayotning ko'p sohasida natijaning taxminan 80 foiziga sarflangan harakat yoki sababning 20 foizi asosida erishiladi degan fikrni ilgari suradi. Bu prinsip turli soha, jumladan, biznes, ta'lim, fan, vaqtni boshqarish va boshqa sohalarda keng qo'llanishi mumkin. Bu maksimal samaradorlikka erishish uchun diqqatni eng muhim va samarali vazifalarga qaratishga yordamlashadi”.<sup>2</sup> Buni til o'rganishga ham tatbiq qilish mumkin. Jumladan, chet tilini 95 %ini tushunish – ravon gapirish va o'qish uchun ba'zida uch oylik muddat, ba'zida 98% tushunishga erishish uchun esa 10 yil kerak bo'lishi ham mumkin. Pareto qonunining til o'rganishda joriylanishi eng faol nutq birliklarini saralash maqsadida chastotali lug'atlarni yaratishni taqozo etadi.

Dunyo tajribasida chastotali lug'atlar til o'rgatishga asoslangan dasturlar va darsliklarning joriylanishida muhim ahamiyatga ega. 1958-yilda M.West tomonidan ingliz tilidagi so'zlarning chastotasini aniqlanadi va eng faol 2000 ta so'zli lug'at yaratildi. Bu lug'at keyingi chastotali lug'atlarning yaralishiga asos bo'ldi va til o'qitishda qiymati va qimmatini baland manba sifatida baholandi.<sup>3</sup>

Tilshunoslikda lingvostatistik tahlillar va ularning natijasida yaratilgan chastotali lug'atlarning tarixi va turli maqsadlarda amalga oshirilganligi haqida quyidagi ma'lumotlar ham ahamiyatli: “Tilshunosligimizda ushbu metodning qo'llanishi leksikografik ishlarni yangi pog'onaga olib chiqdi. I.A.Kissen tomonidan yaratilgan birinchi chastotali lug'at o'qituvchilar uchun ham muhim qo'llanma bo'lib qoldi. Bu metod o'zbek tilshunosligida yozuvchilik leksikografiyasining takomillashuviga sabab bo'ldi. O'zbek leksikografiyasining bu yo'nalishi S.Rizayev,

<sup>2</sup> Mengliyev B., Hamroyeva Sh va b. 80/20 til, adabiyot, ta'lim. Jamoaviy monografiya / Toshkent: “Dimal” nashriyoti, 2024. 29-b.

<sup>3</sup> Терентьева И. А. Практическое применение семантического частотного словаря в обучении английскому языку // Вестник ВГУ. Серия: лингвистика и межкультурного коммуникация. – Россия: 2014. 121-123-с.



# XORIY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

*mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani*

N.Bo`ronov, R.Qo`ng`urov, S.Karimov va Sh.Mahmatmurodov tomonidan yaratilgan lug`atlar hisobiga kengayib bordi.”<sup>4</sup>

O`zbek tilshunoslaridan S.Muhamedov lingvostatistik usuldagi birinchi tarjiba sifatida 1982-yilda tuzilgan “O`zbek tilining alfavitli-chastotali lug`ati” shu davrda yig`ib olingan gazeta materiallari asosida tildagi leksik va grammatik o`zgarishlarni aniqlash maqsadida yaratdi.<sup>5</sup> Bunda umumiy 20 ming so`zdan iborat publitsistik nutq uslubiga oid matnlar yig`ilgan, leksik birliklar va so`zshakllarning chastotasini aniqlashga e`tibor qaratilgan. So`zning nutqda qo`llanishiga ko`ra faol (aktiv) va nofaol (passiv)ligi “ko`pdan kanga tomon” darajalanmagan, faqatgina qo`llanish chastotasi raqamli tahlillar asosida alifbo tartibida qayd etilgan.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, til o`qitishda chastotali lug`atlar o`qituvchi va o`quvchilar uchun bu jarayonni optimallashtiradi hamda quyidagi afzalliklarni tadqim etadi:

- a) O`quv va didaktik materiallarni tanlashda yordam beradi;
- b) O`quv jarayoniga oid zarur so`z boyligini aniqlashga ko`maklashadi;
- c) Grammatik qonuniyatlarni tartibli tizimlashga – faol morfologik birliklar, so`zshakllarni ajratib olishga asos bo`ladi;
- d) O`quvchilarni bilim faolligi va samaradorligini oshiradi, vaqtini tejaydi;
- e) Nutq birliklarining ma`lum vaqt oralig`idagi faollik darajasini aniqlaydi, ularni til bilish ko`nikmalarini baholash dasturi mezonlariga ko`ra darajalanishini yuzaga keltiradi.

Til o`qitishdagi yangi yondashuvlarning asosi sifatida amalga oshiriladigan lingvostatistik tahlil va uning natijasi bo`lgan chastotali lug`atlar til korpusi va kompyuter lingvistikasiga oid tadqiqotlar bilan yondosh jarayonlardir.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mengliyev B., Hamroyeva Sh va b. 80/20 til, adabiyot, ta`lim. Jamoaviy monografiya / Toshkent: “Dimal” nashriyoti, 2024. – 204 b.
2. Jolie Laide. German-English Frequency Dictionary Essential Vocabulary. – Hong Kong: “First Publishing”, 2016. P 359.
3. Muhamedov S. O`zbek tilining alfavitli-chastotali lug`ati. – Toshkent: “Fan”, 1981. – 111 b.
4. Xadjimusayeva N. “Orzigul” dostonining statistik, semantik, stilistik va lingvopoetik tadqiqi. Fil.f.f.diss. – Jizzax, 2020. – 175 b.

<sup>4</sup> Xadjimusayeva N. “Orzigul” dostonining statistik, semantik, stilistik va lingvopoetik tadqiqi. Fil.f.f.diss. – Jizzax, 2020. 13-b.

<sup>5</sup> Muhamedov S. O`zbek tilining alfavitli-chastotali lug`ati. – Toshkent: “Fan”, 1982. 5-b.



**XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION  
YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI**  
*mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani*

5. Терентьева И. А. Практическое применение семантического частотного словаря в обучении английскому языку // Вестник ВГУ. Серия: лингвистика и межкультурного коммуникация. – Россия: 2014. 121-123-с.



# XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

*mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani*

88.	<b>XORIJIY TILLAR YO'NALISHI TALABALARIGA EKOPEDAGOGIK KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISHNI AMALGA OSHIRISHNING INNOVATSION TEXNOLOGIYALARI</b> <i>Murtozayeva Mahfuza Murtozayevna</i>	382-386
89.	<b>THE SIGNIFICANCE OF THE RESEARCH PROCESS, TYPES, AND METHODOLOGIES IN ENHANCING THE RESEARCH COMPETENCE OF EDUCATORS</b> <i>Musoyeva Aziza Botirovna</i>	387-389
90.	<b>XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION TA'LIM TEXNOLOGIYALARI</b> <i>Mustafoyeva Nodira Erkin qizi</i>	390-394
91.	<b>THE ROLE OF AUTHENTIC VIDEO MATERIALS IN DEVELOPING PRAGMATIC COMPETENCE IN EFL LEARNERS</b> <i>Rustamova Adash Eshankulovna, Muxtarova Nigina Tursunpulat kizi</i>	395-397
92.	<b>ENHANCING WRITING SKILLS OF UNIVERSITY STUDENTS</b> <i>Nargiza Gopurova Avazbekovna</i>	398-402
93.	<b>THE IMPLEMENTATION OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE IN TEACHING FOREIGN LANGUAGES</b> <i>Nematjonova Nilufar</i>	403-406
94.	<b>INNOVATIVE APPROACHES TO TEACHING SPEAKING SKILLS</b> <i>Karimova Nilufar, Nozima Makhmudova Otabek kizi</i>	407-409
95.	<b>THE EFFECTIVENESS OF AI-BASED FEEDBACK IN WRITING ASSIGNMENTS</b> <i>Murodova Rukhsora, Ochilova Asila Ruzmat kizi</i>	410-413
96.	<b>THE ROLE OF READING IN ENHANCING CRITICAL THINKING SKILLS</b> <i>Khajieva Mukhlisa, Odilova Madinabonu Jakhongir kizi</i>	414-416
97.	<b>THE IMPACT OF TECHNOLOGY ON LEARNING NEW LANGUAGES</b> <i>Olimjonova Ziyoda Isroiljon kizi</i>	417-420
98.	<b>VIZUALIZATSIYAGA ASOSLANGAN MASHQLAR TIZIMI TADQIQI</b> <i>Ortiqova Tursunoy Jumanazar qizi</i>	421-424
99.	<b>O'ZBEK TILINI O'QITISHDA LINGVOSTATISTIK TAHLIL VA CHASTOTALI LUG'ATLARNING AHAMIYATI</b> <i>Oydinniso Nasirdinova Dagarovna</i>	425-428
100.	<b>INNOVATIVE METHODS AND TECHNOLOGIES IN FOREIGN LANGUAGE TEACHING</b> <i>O'rinboyeva (Ravshanova) Yulduz Shuhrat qizi</i>	429-433
101.	<b>CHALLENGES OF TEACHING ENGLISH AS A SECOND LANGUAGE</b> <i>Qodirqulova Sanam Sobirjon qizi, Raufova Feruza Karimjon qizi, Safarova Zumrad Shuhrat qizi</i>	434-437
102.	<b>THE ROLE OF TASK-BASED PROJECTS IN TEACHING FOREIGN LANGUAGES TO MIDDLE SCHOOL STUDENTS</b> <i>Zilola Qo'chqorova Qahramon qizi</i>	438-441
103.	<b>THE USE OF PROJECT IN FOREIGN LANGUAGE TEACHING</b> <i>Qo'shmurodova Zarina Sanjar qizi</i>	442-446
104.	<b>INNOVATIVE EDUCATIONAL TECHNOLOGIES IN TEACHING FOREIGN LANGUAGES</b> <i>Saydamatov Ikromjon Nazirovich, Qurbonaliyeva Yoqutxon Ilxomjon qizi</i>	447-451
105.	<b>USING AUTHENTIC MATERIALS TO IMPROVE LISTENING COMPREHENSION IN EFL CLASSROOMS</b> <i>Rakhimova Farhunda Sharifjonovna, Khaibaev Bakhrombek Erkinovich</i>	452-454
106.	<b>INTEGRATING THE WATSON-GLASER APPRAISAL AND PEARSON'S R.E.D. MODEL TO ASSESS PHILOLOGY STUDENTS' CRITICAL THINKING</b> <i>Rakhmonova Munirabonu G'ulomjon qizi</i>	455-460